

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING HUQUQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Xolmatov Oybek Orifovich –

Farg'ona davlat universiteti,

"Pedagogika" kafedrası tadqiqotchisi

E-mail: o_o_xolmatov@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0414-3733>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinib, huquqiy kompetentlikning mazmuni, tarkibiy qismlari hamda pedagogik faoliyatdagi ahamiyati kompetensiyaviy yondashuv asosida yoritilgan. Sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformalari, adaptiv o'qitish tizimlari, virtual maslahatchilar va intellektual testlash vositalarining bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy bilim, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish, huquqiy vaziyatlarni modellashtirish va talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirish imkoniyatlari ochib beriladi. Natijada sun'iy intellektdan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, huquqiy kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, raqamli ta'lim, intellektual ta'lim texnologiyalari.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ ПРАВОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически анализируются возможности использования технологий искусственного интеллекта в процессе формирования правовой компетентности будущих учителей. На основе компетентностного подхода раскрываются содержание, структурные компоненты и значение правовой компетентности в педагогической деятельности. Обосновываются дидактические возможности образовательных платформ на основе искусственного интеллекта, адаптивных систем обучения, виртуальных консультантов и интеллектуальных средств тестирования в формировании у будущих учителей правовых знаний, правового сознания и правовой культуры. Также раскрываются возможности индивидуализации образовательного процесса, моделирования правовых ситуаций и активизации самостоятельной учебной деятельности обучающихся посредством использования технологий искусственного интеллекта. В результате показано, что применение искусственного интеллекта повышает эффективность развития правовой компетентности будущих учителей.

Ключевые слова: искусственный интеллект, правовая компетентность, компетентностный подход, правовое сознание, правовая культура, цифровое образование, интеллектуальные образовательные технологии.

USING THE CAPABILITIES OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DEVELOPING THE LEGAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Abstract. *This article provides a theoretical and practical analysis of the possibilities of using artificial intelligence technologies in the development of legal competence of future teachers. Based on the competency-based approach, the content, structural components, and significance of legal competence in pedagogical activity are examined. The didactic potential of AI-based educational platforms, adaptive learning systems, virtual assistants, and intelligent assessment tools in shaping future teachers' legal knowledge, legal awareness, and legal culture is substantiated. In addition, the opportunities for individualizing the educational process, modeling legal situations, and enhancing students' independent learning activities through artificial intelligence technologies are revealed. The findings indicate that the use of artificial intelligence increases the effectiveness of developing legal competence among future teachers.*

Keywords: *artificial intelligence, legal competence, competency-based approach, legal awareness, legal culture, digital education, intelligent educational technologies.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni mazmunan yangilanib, bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat fan bo'yicha bilimlari, balki kasbiy faoliyatni huquqiy jihatdan to'g'ri tashkil eta olish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablarni kuchaytirib, uning huquqiy bilimlarga ega bo'lishi, normativ-huquqiy hujjatlar asosida faoliyat yurita olishi hamda huquqiy mas'uliyatni chuqur anglashini taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogika fanining muhim ilmiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Huquqiy kompetentlik pedagogning kasbiy faoliyatida huquqiy bilimlardan ongli foydalanish, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, huquqiy me'yorlarga rioya etish hamda ta'lim subyektlari huquqlarini himoya qila olish qobiliyatlari majmuini o'z ichiga oladi. Ushbu kompetentlik bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib,

ularning ta'lim muassasalarida samarali, adolatli va mas'uliyatli faoliyat olib borishini ta'minlaydi. Shu sababli huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim mazmuni va metodlarini zamon talablari asosida takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangi yondashuv va vositalarni joriy etish imkonini bermoqda. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi o'quv jarayonini individuallashtirish, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda bilimlarni chuqur va tizimli o'zlashtirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlarni yaratishga zamin yaratmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformalari, adaptiv o'qitish tizimlari, virtual maslahatchilar va intellektual baholash vositalari bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini rivojlantirishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish huquqiy vaziyatlarni modellashtirish, real pedagogik holatlarga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish hamda bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali yo'lga qo'yish imkonini beradi. Bu esa huquqiy kompetentlikning faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda talabalarning huquqiy qaror qabul qilish ko'nikmalari, mas'uliyat hissi va huquqiy xulq-atvori izchil rivojlanadi.

Shu asosda, bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish masalasi ilmiy jihatdan asoslashni, uning pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va samaradorligini aniqlashni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogika va yuridik-pedagogik tadqiqotlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog kadrlarni tayyorlash muammolari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, huquqiy kompetentlikni shakllantirishning mazmuni, tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi. I.A.Zimnyaya kompetentlikni shaxsning bilim, ko'nikma, tajriba, qadriyat va

munosabatlarining integrativ tizimi sifatida talqin qilib, pedagog faoliyatida huquqiy kompetentlikning muhim o'rin tutishini asoslab beradi. Uning fikricha, huquqiy kompetentlik pedagogning kasbiy faoliyatda huquqiy bilimlardan ongli va mas'uliyatli foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi. A.V.Xutorskoy esa pedagogik kompetensiyalar tizimini tahlil qilar ekan, huquqiy kompetentlikni umumkasbiy kompetensiyalarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadi hamda uni huquqiy bilim, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligi sifatida izohlaydi. V.I.Baydenko tadqiqotlarida huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida ta'lim mazmunini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash muhimligi ta'kidlanadi. So'nggi yillarda xorijiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotchilar sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'qitish tizimlari, intellektual baholash vositalari va virtual maslahatchilar ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda bilimlarni chuqurlashtirishda samarali vosita ekanligini asoslab bermoqda. Bunday texnologiyalar, ayniqsa, murakkab va ko'p jihatli bilimlarni, jumladan huquqiy bilimlarni o'zlashtirishda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

Respublika olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ham bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi keng yoritilgan. Xususan, N.Sayidahmedov, B.Xodjayev, R.Jo'rayev kabi olimlar pedagogik ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, kasbiy tayyorgarlik mazmunini takomillashtirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalarini ilmiy asoslab berilgan. Ularning tadqiqotlarida pedagog shaxsining huquqiy madaniyati va kasbiy mas'uliyati ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi. Shuningdek, respublika tadqiqotchilarining ayrim ishlarida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan bo'lsa-da, aynan sun'iy intellekt texnologiyalarini bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirish masalasi yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Aksariyat ishlar umumiy raqamli vositalar yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan cheklanib, sun'iy intellektning didaktik va metodik

imkoniyatlari chuqur tahlil qilinmagan. Bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish masalasi nazariy jihatdan yetarlicha asoslangan bo'lsa-da, ushbu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va samaradorligini aniqlash zarurati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga mazkur tadqiqot qaratilgan bo'lib, u kompetensiyaviy, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga tayanadi. Huquqiy ta'lim mazmunini kasbiy tayyorgarlik bilan integratsiyalash hamda raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish g'oyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari pedagogika, huquqshunoslik, ta'lim texnologiyalari va sun'iy intellekt sohasidagi fundamental ilmiy qarashlarga tayanadi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini bilim, ko'nikma, malaka, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning integrativ majmui sifatida talqin etish imkonini berdi. Tizimli yondashuv huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini maqsad, mazmun, metod, vosita va natija kabi o'zaro bog'liq komponentlar tizimi sifatida o'rganishga xizmat qildi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish va talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirishga imkon yaratdi. Umumilmiy metodlar – tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan ishda foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida huquqiy kompetentlik tushunchasining mazmuni va tuzilmasi aniqlashtirildi, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidagi o'rni belgilandi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, modellashtirish metodi asosida bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining konseptual modeli ishlab chiqildi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa va so'rovnoma metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy bilim darajasi, huquqiy ong va huquqiy madaniyatining shakllanish holatini

aniqlashga xizmat qildi. Tajriba-sinov ishlari doirasida sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformalari, adaptiv o'qitish tizimlari, virtual maslahatchilar va intellektual baholash vositalari joriy etilib, ularning huquqiy kompetentlikni rivojlantirishdagi samaradorligi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil metodlari yordamida qayta ishlanib, tadqiqot natijalarining ishonchligi va obyektivligini ta'minlash maqsadida statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar qiyosiy tahlil qilinib, an'anaviy ta'lim jarayoni bilan sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan ta'lim samaradorligi solishtirildi, tadqiqotda qo'llanilgan metodlar majmui bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda ularni ta'lim amaliyotiga joriy etish uchun zarur metodologik zamin yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tajriba-sinov ishlari natijalari sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalarini joriy etish bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy bilimlarini o'zlashtirish darajasi, huquqiy ong va huquqiy madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot davomida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilgan ta'lim jarayonida talabalarning huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishi va faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Xususan, adaptiv o'qitish tizimlari orqali taqdim etilgan o'quv materiallari talabalarning individual o'zlashtirish sur'atlariga moslashtirilgani sababli huquqiy tushunchalar chuqurroq va tizimli tarzda o'zlashtirildi. Bu holat huquqiy bilimlarning mustahkamlanishiga hamda ularni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Virtual maslahatchilar va intellektual o'quv yordamchilari orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning huquqiy savodxonligini oshirish bilan birga, ularning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtiradi. Talabalar huquqiy me'yorlar, normativ-huquqiy hujjatlar va pedagogik faoliyatga oid huquqiy masalalar bo'yicha tezkor va individual maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada huquqiy ong va huquqiy mas'uliyatni shakllantirish jarayoni izchil va samarali kechdi.

Intellektual baholash vositalaridan foydalanish esa bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini aniqlash va monitoring qilish imkonini kengaytiradi.

Bunday vositalar yordamida talabalarning huquqiy bilim darajasi, huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati hamda huquqiy qaror qabul qilish ko'nikmalari obyektiv baholandi. Olingan natijalar sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari an'anaviy nazorat usullariga nisbatan ko'proq moslashuvchan va tahliliy imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, kompetensiyaviy yondashuv asosida huquqiy kompetentlikni rivojlantirish zarurligi to'g'risidagi ilmiy xulosalar ushbu tadqiqot natijalari bilan uyg'unlashadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish va huquqiy vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatlari mavjud tadqiqotlarda ilgari surilgan umumiy raqamli yondashuvlarni mazmunan boyitadi va kengaytiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini faqat texnologik jihatdan emas, balki pedagogik jihatdan ham sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Biroq mazkur texnologiyalarni joriy etishda pedagoglarning raqamli va huquqiy savodxonligi, ta'lim mazmunining metodik jihatdan to'g'ri ishlab chiqilishi hamda axloqiy-huquqiy me'yorlarga rioya etilishi muhim shartlar sifatida namoyon bo'ladi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lsa-da, ularni an'anaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

XULOSA

Mazkur maqolada huquqiy kompetentlik pedagog kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi ekani, uning huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy xulq-atvor bilan uzviy bog'liqligi aniqlashtirilgan. O'tkazilgan nazariy tahlillar va tajriba-sinov ishlari natijalari sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'qitish tizimlari huquqiy bilimlarni individual o'zlashtirishni

ta'minladi, virtual maslahatchilar va intellektual o'quv yordamchilari esa talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirib, huquqiy ong va huquqiy mas'uliyatning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish huquqiy vaziyatlarni modellashtirish, real pedagogik faoliyatga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish hamda huquqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa huquqiy kompetentlikning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham izchil shakllanishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ularning pedagogik jihatdan to'g'ri integratsiya qilinishiga, ta'lim mazmunining metodik asoslanganligiga hamda pedagoglarning raqamli va huquqiy savodxonligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Mazkur texnologiyalar an'anaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holda qo'llangandagina barqaror va kutilgan natijalarga erishish mumkinligi aniqlandi.

Bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish pedagogik ta'lim mazmunini takomillashtirish, ta'lim jarayonini individuallashtirish va kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XYATI

1. **I.A.Zimnyaya** Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании *Педагогика*. – 2004. №4. 3-14 с.
2. **A.V.Xutorskoy** Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования *Народное образование*. – 2003. №2. 58-64 с.
3. **V.I.Baydenko** Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 114 с.
4. **J.Delors** (Ed.). *Learning: The Treasure Within*. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – 266 p.
5. **N.Sayidahmedov** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 256 b.
6. **B.Xodjayev** Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlash muammolari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 192 b.
7. **R.Jo'rayev** Ta'lim jarayonida shaxs kompetentligini rivojlantirish masalalari. – Toshkent: Fan, 2017. – 180 b.

8. **D.Karimova** Innovatsion texnologiyalar yordamida ingliz tili darslarini samarali tashkil etish. – Toshkent, 2018. – 128 b.